


## Furqat tumani hokimi iste'fodagi harbiy xizmatchini bayram bilan tabrikladi

Furqat tumani Chirkay qishlog'ida istiqomat qiluvchi G'ulomjon Mamatqulov Vatanimiz mudofaa qudratini yuksaltirish, Qurolli Kuchlarimizning sifat darajasini oshirish yo'lida ko'p yillar samarali mehnat qilgan. Iste'fodagi podpolkovnik hozir nafaqada bo'lsa ham, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, , mamlakatimizda ma'nан yetuk, jismonan sog'lom, Vatanga sodiq farzandlarni kamolga yetkazishdek ezgu ishlarda bosh-qosh bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tuman hokimi Elyorbek Asronqulov faxriy harbiy xizmatchi G'ulomjon Mamatqulovning xonardonida bo'lib, bayram bilan tabrikladi hamda tabriknoma, gul va esdalik sovg'alarini topshirdi.







2025-01-14 16:10:15